

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12111054>

ADCHTI

Kabulova U.S

Umumiy va qiyosiy tilshunoslik

kafedrası professori

Annotatsiya: O'zbek tilida ko'chma ma'no ifodalangan, obrazlilik qatnashgan hikmatli iboralar, maqollar, matallar, frazeologik birliklar, aforizmlar, topishmoqlar va boshqalar turg'un birikmalar deb yuritiladi. Har bir maqol va matn xalq hukmi: ular biror narsani lo'nda qilib tasdiqlaydi yoki inkor qiladi, ya'ni haqiqatni ifodalaydi. Mazkur maqola ana shu turg'un birikmalarga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: ko'chma ma'no, obrazlilik, hikmatli iboralar, maqollar, matallar, frazeologik birliklar, aforizmlar, topishmoqlar, turg'un birikmalar, komponentlar.

Аннотация: Мудрые выражения, пословицы, поговорки, фразеологизмы, афоризмы, загадки и т.д., выражающие в узбекском языке переносный смысл, считаются устойчивыми соединениями. Каждая пословица и текст – это мнение народа: они что-то подтверждают или отрицают, то есть выражают истину. Этим стабильным соединениям посвящена данная статья

Ключевые слова: переносное значение, образность, мудрые изречения, пословицы, поговорки, фразеологизмы, афоризмы, загадки, устойчивые соединения, компоненты.

Abstract: Wise expressions, proverbs, sayings, phraseological units, aphorisms, riddles, etc., expressing a figurative meaning in the Uzbek language, are considered stable compounds. Every proverb and text is the opinion of the people: they confirm or deny something, that is, they express the truth. This article is devoted to these stable compounds.

Key words: figurative meaning, imagery, wise sayings, proverbs, sayings, phraseological units, aphorisms, riddles, stable compounds, components

Har bir xalq asrlar davomida katta hayotiy tajriba to'playdi. Shu tajribani vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Jahonda hikmat durdonlalarini yaratmagan, ularni asrlar osha dilida, tilida saqlab kelmayotgan biror xalq yo'q⁴⁹.

Har gal nutq jarayonining o'zida tashkil topmay, balki ungacha bir butun holga kelgan, til xotirasida yaxlitligicha yashagan, nutqqa ham yaxlitligicha kiritilgan birikmalar

⁴⁹ Баёнханова И.Ф. Паремияларнинг турли тизимдаги тилларда умумий хусусиятлари. — СамДЧТИ, 2014// https://samxorfil.uz/images...2019/2/Bayonxonova_Iroda.pdf.

turg'un birikmalar sanaladi⁵⁰. Turg'un birikma terminining ma'no mundariyasi juda keng. U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlar bunday til hodisalarini avvalo ikkiga guruhlash mumkinligini aytadilar: 1) to'g'ri ma'noli turg'un bog'lanmalar; 2) ko'chma ma'noli turg'un bog'lanmalar. Turg'un bog'lanmalarning bu ikki turi o'z ma'no tabiatiga ko'ra farq qiladi: har ikkisida ma'lum bir voqelik anglatiladi, lekin birinchisi, odatda, voqelikni nomlash bilangina chegaralansa, ikkinchisida ko'chma ma'no, obrazlilik ham qatnashadi.

A.Hojiyev turg'un birliklarga shunday izoh beradi: Nutqning o'zida tuzilmay, tilda bir butun holda mavjud bo'lib, nutqqa yaxlitligicha kiritiladigan birliklardir; nutqning o'zida tuzilib, komponentlari o'z lug'aviy ma'no mustaqilligini saqlagan sintaktik birliklar esa erkin birikmalar, bunday birikmalar odatda to'g'ridan-to'g'ri so'z birikmasi deb yuritiladi⁵¹.

O'zbek tilida ko'chma ma'no ifodalangan, obrazlilik qatnashgan hikmatli iboralar, maqollar, matallar, frazeologik birliklar, aforizmlar, topishmoqlar va boshqalar turg'un birikmalar deb yuritiladi. Har bir maqol va matn xalq hukmi: ular biror narsani lo'nda qilib tasdiqlaydi yoki inkor qiladi, ya'ni haqiqatni ifodalaydi⁵².

Tilshunos-olimlar turg'un so'z birikmalarini idiomatik ma'noli frazeologik birlik kabi semantik hodisa tarzida bayon etadilar.

Turg'un birikmalar, sof turg'un birikmalar, parafrazalar frazeologik birliklar doirasida o'rganilmoqda⁵³. Chunki ularning sintaktik tabiati, komponentlari o'rtasidagi munosabat masalari ilmiy yechim topmagan. V.V.Vinogradov, O.S.Axmanova, N.M.Shanskiy, V.I.Koduxov, F.F.Fortunatov, Yu.Yu.Avaliani, L.I.Royzenzon, A.M.Emirova, V.G.Gak kabi yirik frazeologik tilshunoslar turg'un birikmalar va frazeologik iboralar o'rtasidagi turg'unlik tushunchasi bir xil darajada emas, har qanday turg'un birikma ham frazeologik ibora bo'lmasligini ta'kidlaydilar. Turg'un so'z birikmalarning ilmiy talqini Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev, A.E. Mamatovlarning tadqiqotlarida ham kuzatiladi⁵⁴.

Tilshunoslikda turg'un birikmalar "tayyorlik" va "barqarorlik" belgilari bilan xarakterlanadi. Hozirgi kungacha turg'un birikmalar turlicha nomlar bilan atalib, turli xil ta'riflar beriladi. Idiomalar, maqol va matallar, qanotli so'zlar, aforizmlar singari birikmalarni "frazeologizm" atamasi ostida birlashtiriladi⁵⁵.

Turg'un so'z birikmalarining ilmiy talqini turkiy tillar materialida ham ozmi-ko'pmi ishlangan⁵⁶. S.N.Muratovning frazeologik iboralarning har qanday turida ham idiomatik ma'no ifodasi mavjudligi xususidagi mulohazasi bilan ham to'liq qo'shilish mumkin⁵⁷. Muallif barcha turdagi frazeologik iboralarda idiomatik ma'no mavjud deb hisoblaydi.

⁵⁰ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1992. – Б. 56-57.

⁵¹ Ҳожиев А. Tilshunoslik terminlarining izohli lugati. –Т.: "Ўқитувчи", 1985. –Б. 98/ library. samdu.uz/files/22ebod7a70f761363f39a98d7e229.pdf.

⁵² Ўзбек халқ мақоллари. –Т.: «Академнашр» 2001. – В. 5/http://reja.tdpu.uz>...article...book (October 26, 2021). pdf.

⁵³ Mamatov A. Frazeologik birliklar va turg'un birikmalar derivatsiyasi tadqiqi. – Toshkent, 2019. – В. 3.

⁵⁴ Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Тошкент, 2013 йил; Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув кўлланма). – Тошкент, «Наврўз» нашриёти, 2019; Маматов А.Э., Болтаева Б. Фразеологик бирикларнинг семантик-прагматик тадқиқи. Монография. – Тошкент, "Наврўз", 2019 йил.

⁵⁵ Лингвистический энциклопедический словарь. –М., 1990. –Стр. 559./http://rus-yaz.niv.ru > doc/dictionary/linguistic...index. html. pdf.

⁵⁶ Карант: Муратов С.Н. Устойчивые словосочетания в тюркских языках. –М., 1960. –Стр. 115.

⁵⁷ Шодиев С. Тургун бирикмаларнинг синтактик деривацияси// Автореферат, ф.ф.ф.д. дисс. – Самарқанд, 2013. – Б. 13.

Biroq, turg'un so'z birikmalarining tadqiqi bobida hamon izohtalab masalalar kuzatilmoqda. Ko'pgina olimlar bunday birikmalarni idiomatik ma'noli frazema tarzida izohlab keldilar. Sof turg'un birikmalar aksariyat hollarda idiomatik ma'noli birikmalar bilan qorishtirib yuborildi. Bu o'rinda shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, turg'un birikmalar, shu jumladan, frazemalar ham semantik hodisa tarzida izohlandi, ularning komponentlari o'rtasidagi sintaktik munosabat, yuqorida eslatib o'tilgani kabi, masalasi nazardan chetda qoldi. Turg'un so'z birikmalarining struktur-semantik xususiyatlarini o'rganish masalasi hali tadqiqotlar kun tarkibiga qo'yilgani yo'q.

S.E.Shodiyev "Turg'un so'z birikmalarining sintaktik derivatsiyasi" nomli ilmiy tadqiqot ishini hozirgi o'zbek tilida sof turg'un so'z birikmalarining lingvistik tabiatini yoritish va ularning derivatsion xususiyatlarini o'rganishga bag'ishladi⁵⁸. S.E.Shodiyev tadqiqotining obykti tarzida o'zbek tilidagi turg'un so'z birikmalari tanlangan. Tadqiqotning predmetini sof turg'un birikmalarining lingvistik tabiati, ularni erkin so'z birikmalaridan farqlovchi noidiomatik asosi, frazemalarning esa idiomatik xarakteri va derivatsion xususiyatlarining tadqiqi tashkil etgan. Turg'un so'z birikmalarining sintaktik derivatsiyasi jahon va o'zbek tilshunosligidagi holati o'rganilgan, hamda ularning komponentlari o'rtasidagi sintaktik munosabatga, derivatsion tamoyillar masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. O'zbek tilidagi turg'un so'z birikmalari alohida tarkibli termin, tarkibli atama, parafraza, so'z birikmasi qolipidagi frazalarning derivatsion tarkibi shakllantirilgan. turg'un so'z birikmalar sintaktik derivatsiya mahsuli ekanligi isbotlangan.

Azim Hojiyev frazeologizmga shunday ta'rif beradi: "Tuzilishi jihadan so'z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan nutq jarayonida yaratilmay, balki nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug'aviy birlik. Turg'un birikmalarning obrazli, ko'chma ma'noga ega turi"⁵⁹.

Xususan, H.Berdiyev va R.Rasulovlar⁶⁰paremalarni o'rganuvchi paremiologiya va frazeologizmlarni farqlaydilar. Bunday holatda parema va frazeologizm o'rtasida gipogiperonimik munosabat bo'lib, parema giperonim, frazeologizm esa giponim maqomida bo'ladi. Bu ikki birlik o'rtasidagi farqlovchi belgi sifatida "gipo-giperonimlik" belgisidan tashqari "semantik transpozitivlik" belgisi xizmat qiladi.

Lug'aviy birliklarning mazmun tomoni ikki hodisadan – lug'aviy ma'no va stilistik (emotsional-ekspressiv) bahodan tarkib topadi. Lug'aviy ma'no leksemaga nisbatan *leksik ma'no* deb, *frazemaga* nisbatan **frazeologik ma'no** deb yuritiladi⁶¹.

⁵⁸ Шодиев С. Турғун бирикмаларнинг синтактик деривацияси// Автореферат, ф.ф.ф.д. дисс. – Самарқанд, 2013. – Б.14.

⁵⁹ Ҳожиёв А. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.–Т.: "Ўқитувчи", 1985. –Б. 104// library.samdu.uz/files/22ebod7a70f761363f39a98d7e229.pdf.

⁶⁰ Berdiyev H. Rasulov R.O'zbek tilining paremiologik lug'ati. –Т., 1982. –В.10/studmed.ru/berdiyevov-h-rasulov-r-zbek-tilining-paremiologik-lu-ati-100977841c5.html.

⁶¹ Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т. «Ўзбекистон», 1992. –Б. 61.

Sh.Rahmatullayev frazeologizmlarni quyidagicha sharhlaydi: “Bittadan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilishi jihatdan birikmaga, gapga teng, mazmunan soʻzga ekvivalent, yaxlitligicha ustama koʻchma maʼno anglatuvchi lugʻaviy birlikka frazeologizm (frazeologik birlik) deyiladi”⁶².

Sobiq shoʻrolar davrida imperiya hududidagi barcha tillarning frazeologiyasi V.V.Vinogradov taʼlimoti asosida dunyoga keldi. Jumladan, oʻzbek frazeologiyasi ham bundan mustasno emas. Har bir til oʻzining soʻzlariga, frazeologiyasiga, hamda paremiologiyasiga ega.

Oʻzbek paremiologik fondi bir necha oʻn minglab paremalarni oʻz ichiga oladi. Ular lingvistikaning paremiologiya sohasida tadqiq etiladi. Bu haqda tilshunos olim N.Uluqov “Tilshunoslik nazariyasi” nomli oʻquv qoʻllanmasida quyidagicha izohlaydi: “paremiologiya tilshunoslikning boʻlimlaridan biri boʻlib, tildagi barqaror birikmalar maqol, matal va aforizmlar (hikmatli soʻzlar)ni oʻrganadi” .

Tilshunoslikda turgʻun birikmalar “tayyorlik” va “barqarorlik” belgilari bilan xarakterlanadi. Hozirgi kungacha turgʻun birikmalar turlicha nomlar bilan atalib, turli xil taʼriflar beriladi.

ADABIYOTLAR:

1. Баёнханова И.Ф. Паремияларнинг турли тизимдаги тилларда умумий хусусиятлари. – СамДЧТИ, 2014// [https://samxorfil.uz> images...2019/2/BayonxonovaIroda.pdf](https://samxorfil.uz/images...2019/2/BayonxonovaIroda.pdf).
2. Berdiyev H. Rasulov R. Oʻzbek tilining paremiologik lugʻati. –T., 1982. –B.10.
3. Муратов С.Н. Устойчивые словосочетания в тюркских языках. –М., 1960. –Стр. 115.
4. Mamatov A. Frazeologik birliklar va turgʻun birikmalar derivatsiyasi tadqiqi. – Toshkent, 2019. – B. 3.
5. Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Тошкент, «Наврўз» нашриёти, 2019.
6. Маматов А.Э., Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг семантик-прагматик тадқиқи. Монография. – Тошкент, “Наврўз”, 2019 йил.
7. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Тошкент, 2013 йил;
8. Лингвистический энциклопедический словарь. –М., 1990. –Стр.
9. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Т.: «Фан», 1970. –Б. 56.
10. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1992. – Б. 56-57.

⁶² Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Т.: «Фан», 1970. –

Б.56\(https://n.ziyouz.com/books/uzbek_adabiy_tili/Shavkat%20Rahmatullayev.%20Nutqimiz%20ko'rki.pdf

11. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли луғати. –Т.: "Ўқитувчи", 1985. –Б. 98.
12. Шодиев С. Тўғун бирикмаларнинг синтактик деривацияси// Автореферат, ф.ф.ф.д. дисс. – Самарқанд, 2013. – Б. 13.
13. Ўзбек халқ мақоллари. –Т.: «Академнашр» 2001. – В. 5.

AXBOROT RESURSLARI:

14. library.samdu.uz/files/22ebod7a70f761363f39a98d7e229.pdf.
- [/studmed.ru/berdiyurov-h-rasulov-r-zbek-tilining-paremiologik-lu-ati-100977841c5.html](http://studmed.ru/berdiyurov-h-rasulov-r-zbek-tilining-paremiologik-lu-ati-100977841c5.html).
15. [http://rus-yaz.niv.ru > doc/dictionary/linguistic...index. html. pdf](http://rus-yaz.niv.ru/doc/dictionary/linguistic...index.html).
16. <http://reja.tdpu.uz>>...article...book (October 26, 2021).
17. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_adabiy_tili/Shavkat%20Rahmatullayev.%20Nutqimiz%20ko'rki.pdf